

**XRIZANTEMA (CHRYSANTHEMUM CORONARIUM L.) O'SIMLIGINING  
AHAMIYATI.**

**D.G'.Sodiqova**

DTPI o'qituvchisi

**To'rayeva Nargiza Ravshanjonovna**

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10934672>

*Annotatsiya.* Bizga ma'lumki, dorivor o'simliklardan xalq tabobatida har xil damlamalar va malhamlar tayyorlab foydalanib kelingan. Ushbu maqolada Xrizantema o'simligining xususiyatlari, ahamiyati va tabobatda ishlatilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* *Chrysanthemum coronarium L., urug' pallalilar sinfi, xalq tabobati, to'pgul.*

**IMPORTANCE OF CHRYSANTHEMUM (CHRYSANTHEMUM  
CORONARIUM L.) PLANT.**

*Abstract.* We know that various tinctures and ointments have been prepared and used from medicinal plants in folk medicine. This article provides information about the properties, importance and use of the chrysanthemum plant in medicine.

*Key words:* *Chrysanthemum coronarium L., class of legume, folk medicine, flower.*

**ЗНАЧЕНИЕ РАСТЕНИЯ ХРИЗАНТЕМЫ (CHRYSANTHEMUM  
CORONARIUM L.).**

*Аннотация.* Мы знаем, что из лекарственных растений в народной медицине готовили и использовали различные настойки и мази. В данной статье представлена информация о свойствах, значении и использовании растения Хризантема в медицине.

*Ключевые слова:* *Хризантема коронарная L., класс бобовых, народная медицина, цветок.*

Manzarali o'simliklardan unumli foydalanish, ularni ko'paytirish, shaharlar va boshqa aholi yashaydigan manzillarni manzarali o'simliklar bilan boyitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Dorivor va manzarali o'simliklar inson salomatligini tiklash bilan bir qatorda, insonlarga yaxshi kayfiyat va ko'tarinki ruh bag'ishlab, atrof muhit havosini tozalashda katta ahamiyatga ega.

Shunday o'simliklar qatoriga kiruvchi *Chrysanthemum coronarium L.* kelgusida mamlakatimiz xalq xo'jaligida, jumladan, gulchilikda muhim ahamiyatga ega bo'lishi aniq.

Xrizantema sistematik holatiga ko'ra: yopiq urug'li o'simliklar bo'limi, ikki urug' pallalilar sinfi, qoqio'tdoshlar oilasi, xrizantema turkumi va *Chrysanthemum coronarium* turi xisoblanadi[1].

Xrizantemaning bir yillik va ko'p yillik hayotiy shakllari mavjud. Xrizantema o'simligi yer sharining shimoliy zonalarida Osiyo, Yevropa va Afrikada keng tarqalgan. Turkumning nomi ikkita grek so'zidan olingan bo'lib, «chrysos» oltin va «anthesis» gul ma'nosida kelib, to'pgul sariq rangli ekanligini anglatadi.

Xrizantema tupining balandligi 50 sm dan 150 smgacha yetadi. Poyada barglari ketma-ket joylashib uzunligi 8-10 sm ga yetadi. Barglari oddiy, yaxlit, turli kattalikdagi barg yaprog'iga ega bo'ladi. Barglari tuk bilan qoplangan va ba'zilar tukchalar bo'lmaydi, och yashil rangli.

Gullari kichkina savatchada joylashadi. Ba'zi vakillarida gullari yirik, naysimon sariq rangli gullari savatning markazida va tilsimon gullari esa bir qator bo'lib savatning chetida joylashadi. Mevasi pista xisoblanadi.

Xrizantemani madaniylashtirish ko'p ming yilliklarga borib taqaladi. Xitoyda eramizdan olidingi 551 yilarda o'stirish va maydnini kengaytish boshlangan. Keyinchalik Yaponiyaga olib kelinadi, Yevropaga esa 17 asrda va Rossiyaga 19 asrda keltiriladi[2].

Xrizantemaning bir qancha turlari manzarali o'simlik sifatida Xitoy, Xindiston, Koreya va Osiyoning ko'plab davlatlarida o'stiriladi.

Xrizantema gulining rasmi Yaponiyaning puliga tushirilgan va davlat ordenida xam xrizantema tasvirlangan. Yaponiya imperatorining muxrida xam 1899 yildan boshlab sariq rangli 16 bargchali gul tasviridan foydalanilgan [4]. Xrizantemaning ba'zi turlari xushbo'y xidga ega bo'ladi.

Xrizantemaning ko'pgina turlari bog'dorchiikda manzarali o'simlik sifatida parvarish qilinadi. Xitoy, Koreya, va Osiyo davlatlarida manazarali va uning poyasi, bargi, gullari oziq-ovqat, shuningdek xalq tabobatida keng miqyosida ishlatiladi [3].

Xrizantama turkumi 150 ortiq turni o'z ichiga oladi. Xrizantamaning to'pgullari 2 xil yirik va mayda ko'rinishda bo'ladi.

Ko'pgina damlama va qaynatmalar tayyorlash uchun xrizantemaning xushbo'y va xushta'm xususiyatlari asqotadi. Shuning uchun xrizantemadan ko'pgina liker va achchiq damlamalar tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan.

Xrizantema choyi. Immun tizimini davolashda muxim o'rin tutadi. Xrizantema choyini tayyorlash uchun choy qoshiqga qirqib maydalangan barglari qaynatilgan bir stakan suvga shakar yoki asal bilan birga solinadi. Bunday usulda tayyorlangan choy kuniga 2 marta yarim stakan istemol qilinadi. Bu choy buyrak shamolashini davolashda yaxshi samara beradi.

## REFERENCES

1. Васильев А.Е., Воронин Н.С., Еленевский А.Г., Серебрякова Т.И. Ботаника: морфология и анатомия растений.– М.: Просвещение, 1988.– 480 с.
2. Е.В., Малеева О.Ф. Мировые ресурсы полезных растений. – Л.: Наука, 1969. – 427 с.
3. Хожиматов Қ. Ўзбекистоннинг хушбўй ва хуштаъм ўсимликлари. – Тошкент: Фан, 1992. – 82 б.
4. Хожиматов Қ.Х., Хожиматов О.Қ. Ўсимлик ва табобат // Ботаника, экология, ўсимликлар муҳофазаси: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Андижон, 2007. – Б. 179-181.